



## Ta'limda raqamli texnologiyaning o'rni

Nazarova Malohat Zayniddinovna

TATUSF TTKT fakulteti 21-05-guruh talabasi


**Annotatsiya:** Men bugungi maqolamda shuni ma'lum qilamanki. Hozirgi internet rivojlangan davrda, ta'lim sifatini raqamli texnologiyalarsiz rivojlantirish mushkul bo'lib qoldi. Hattoki endigina maktab ostonasiga qadam bosgan maktab o'quvchisi uchun ham raqamli texnologiyalar ishlatilini kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** Internet, Roboto texnika, Sun'iy intellekt, O'qituvchi va o'quvchi, Raqamli texnologiya

Hozirgi internet rivojlangan davrda, ta'lim sifatini raqamli texnologiyalarsiz rivojlantirish mushkul bo'lib qoldi. Biz o'zimiz ham ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanib kelmoqdamiz. Bu usul ta'lim sifatini yanada yuksaltirmoqda. Yosh avlodni raqamli texnologiyalar bilan har xil usullar bilan ta'limni o'ziga jalb qilmoqda. Oxirgi 31 yil Ichida yurtimizda juda keng o'zgarishlar ro'y berdi. Shu jumladan ta'limda ham ya'ni maktabgacha ta'lim, maktablarda, oliy ta'limlarda ham. Raqamli texnologiyalar hayotimizga shu darajada singib ketdiki, hatto ularsiz hayotimizni tasavur qilolmas darajaga yetib keldik. Nafaqat ta'limda balki boshqa sohalarda ham bu raqamli texnologiyalarni o'rni juda ham katta ro'l o'ynamoqda.

O'quvchilar hoxlagan vaqtida sifatli va malakali ta'lim olishi mumkin. Bu yanada o'qituvchi va murabbiylarga qulaylik bo'ldi. Sharoiti cheklangan yoki nogironligi bor yoshlar ham tengdoshlari kabi sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega. Hatto ob- havo mummolari bo'lganda ham o'qituvchilar va o'quvchilar darslarini to'xtatmagan holda davom ettirishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda internet tezligi hamma joylarda ham yaxshi emasligini aytib o'tish joyiz menimcha. Hatto bazi vaqtlarda markaziy hududlarda ham internet tezligidan shikoyatlar kelib tushishidan hammamizning habarimiz bor. Albatta bu masalalar rahbarlar tomonidan ko'rib borilmoqda (deb umid qilamiz). Ayrim maktab va oliy ta'limlarda 3D formatda dars o'tilish imkoniyati olib borilish masalasi ham ko'rib chiqilmoqda. Yuqorida aytib o'tganidek hamma narsa internerga bog'lik.

Sun'iy intellekt: Bundan 3 yil oldin yurtimiz. COVID-19 nomli ko'rinmas lashkar bilan kurashdi. Faqat bizning yurtimiz emas, balki butun dunyo shu kassalikka qarshi






kurashdi. Shu vaqtda sun`iy intellekt juda ham foyda keltirar edi. Ya`ni robotlar misolida olib qarajak, yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlarning oldiga shifokorlar kirishga qaysidir ma`noda qo`rqishadi. Bu tabiiy hol albatta, shu boyisdan, robotlarni ishga solsak bu jamiyatimizga albatta katta foyda keltiradi. Ham bemorlarni ham shifokorlarni saqlab qolgan bo`lamiz. Nafaqat shifokorlar balki o`qituvchilar nazarida qarajak ham bo`ladi. Hammamizga ma`lumki har jihatdan imkoniyati cheklangan bilimga chanqoq, shijoatli o`quvchilar bor. Kimningdir uyida internet tarmo`gi yo`q yoki bo`lmasa uyali aloqa muommosi bor. Shu jabhadan ta`linga berilayotgan imkoniyatlarga yuzlanadigan bo`lsak, hamma talaba yoshlarga emas aynan shu imkoniyati cheklangan yoshlarimizning sharoitidan kelib chiqib, ularga sifatli ta`lim olishga yordam berish maqsadida, “ O`qituvchi robotlar” ni yo`lga qo`ysak bu meningcha juda qulaylik tug`dirar edi. Yuqorida takidlaganimdek nogironligi yoki bo`lmasa mobil aloqa bilan muommosi bor yoshlarimizning xonadonlariga borib “O`qituvchi robotlar” ta`lim berishsa, ular ham bizlar singari sifatli ta`lim olishadi. Aynan robotlar miqyosida emas balki boshqa jihatga ham nazar tashlasak, hozirgi vaqtda 90% yoshlarimiz oyoqlariga oyoq kiyim sifatida krasofka kiyishadi, bu albatta qulay. Shu jabhadan kun davomida biz harakatdan to`xtamaymiz, shundan foydalanib oddiy oyoq kiyimlardan akumliyator ( power bag) sifatida foydalansak bo`ladi. Bosim ( P) har bir qadamimizda paydo bo`ladi. Ishqalanish kuchi ham yuzaga keladi ( I). Odam harakati davomida o`zidan energiya ham chiqaradi (  $E_p$ ). Ko`rib turibsizki kun davomida harakatimiz bekorga ketmaydi. Shu boisdan har bir harakatimizdan samarali foydalansak. Hatto elektor enegriyani ham tejagan bo`lamiz. Bu jabhalarni minglab hatto millionlab ko`rsak bo`ladi...

Sun`iy intellekt foydasi yoki zarar: Yuqorida juda ko`p namunalar aytib o`tdik, har bir narsaning ijobiy tarafi bo`lgandek salbiy tarafi ham bo`ladi. Shifokor robotlar misolida, apiratsiyaga kirgan robot hech qachon tavakkal qilmaydi, ular faqat buyirilgan xabarni amalga oshiradi. Apiratsiya vaqtida bemorni faqat kesib tikish buyirilgan bo`lsa robotlar faqat shuni qiladi, lekin qaltis vaziyat yuzaga kelganda ular shifokorlardek tavakkal qilmaydi. Shuning uchun robotlarni ham har tomonini o`ylab ko`rish kerak. Akumliyator oyoq kiyimlar esa, qaysidir ma`noda kuchlanish yuzaga berib insonga zarar yetkazishi mumkin. (qushni so`ysa ham qassob so`ysin) degan maqolni ham buyuklarimiz bekorga aytilmagan.

Agar yoshlarimizda savol yoki bosh qotirma bo`lsa, har birimizga ma`lumki bu savolning javoblarini internetdan qidiradi. Hatto jahon olimpiadasiga tayyorlanadigan





o`quvchilar ham online- o`qituvchi loyihasi yordamida tayyorlanadi. Online individual kuraslarni hozirda topish qiyin bo`lmay qoldi. Shuning uchun hozirda ko`p yoshlarimiz hatto DTM savollariga ham online tayyorlanmoqda. Bunda ko`rinib turibdiki yaqin 10-20 yil ichida hamma narsa sun`iy intellekt bilan bog`lanadi. Bu bizning yurtimi hamm hozirda sun`iy intellekt sohasida jahonda kerakli natijalarga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gaffarova G.G., B. Kodirov. Raqamlashtirish – innovatsion rivojlanish omili sifatida// Academic research in educational sciences. Vol. 1. No. 2. 2020. P.104-112.
2. [kun.uz](http://kun.uz)
3. ”Yangi O`zbekiston” va “ Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati.
4. Chirchiq davlat pedagogika web sayti.

